

BUGUNGI KUN MATBUOTIDA TASVIR FUNKSIYASI

Madolimov Hasanboy Shuhratovich

NamDU o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muallif jurnalistikaning tasvir (informatsion) funksiyasi xususida to'xtalgan. Tasvir funksiyasining bugungi matbuotdagi o'rni, OAVning informatsiya berishdagi zamonaviy usullardan foydalanishi borasida so'z yuritib, ularni misollar bilan yoritib bergen.

Kalit so'zlar: *informatsiya, soha, gazeta, jurnal, umumsiyosiy, ixtisoslashgan, tarmoq, krossmedial, rukn, sarlavha.*

ABSTRACT

This article talks about the informational function of journalism. It is known from the history of journalism and its theory that the emergence of the press is related to the needs and interests of people in social information - to know the events and news happening in life. Therefore, collecting and distributing information is the main factor and means of informing the public about events and events that are happening in life.

Keywords: *information, field, newspaper, magazine, general political, specialized, network, crossmedia, rubric, title.*

KIRISH

Jurnalistik tarixi va uning nazariyasi fanidan ma'lumki, matbuotning paydo bo'lishi kishilarning ijtimoiy informatsiyaga – hayotda yuz berayotgan voqeа-hodisa va yangiliklarni bilib turishga bo'lgan ehtiyojlari va qiziqishlari bilan bog'liqdir. Shunday ekan, informatsiya yig'ish va tarqatish, hayotda sodir bo'layotgan voqeа va hodisalardan ommani xabardor qilishning asosiy omili, vositasi hisoblanadi. B.Do'stqorayev o'zining "O'zbekiston jurnalistikasi tarixi" deb nomlanuvchi darsligida matbuotning tasvir funktsiyasi masalasiga to'xtalib, bu ijtimoiy yumush mamlakatimizda vujudga kelgan ilk matbuot nashri bo'lmish "Turkiston viloyatining gazeti"da ham mavjud bo'lganligini ta'kidlab, mazkur nashr matbuotning bu funktsiyasi xususida: "...gazetalar har xil viloyat va xalqlar xususida xabarlar beradur. Bu xabarlarni gazet o'qug'uvchilar tez vaqtda oladurlar" deb yozganligini bayon etadi.¹

¹ Дўстқораев Б. "Ўзбекистон журналистикаси тарихи. (1-кисм. 1870-1917 йил ноябрь)" Дарслик. Faafur Furom nomidagi нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент, 2009. 83-бет

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Jurnalistika jamiyat hayotining barcha sohalarida birdek ishtirok etadi. Shu bois, uning ijtimoiy institut sifatidagi rolini ham jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy va g’oyaviy, ijtimoiy jarayonlardan ayricha tasavvur etib bo’lmaydi.

Agar boshqa ayrim yo’nalishlarda journalistikaning axborot berish vazifasi birinchi o’ringa qo’yilmasa, ijtimoiy sohada axborot vositasi sifatidagi roli asosiy o’rin tutadi. Bundan ko’rinadiki, matbuotning axborot-kommunikatsiya roli jamiyat a’zolari tomonidan o’z o’rni va vazifalarini anglanishiga, ijtimoiy tizimning barcha elementlari kelishuvi va barqarorligi hamda o’zaro munosabatlariiga yordam beradi (S.G.Korkonosenko. “Osnovi jurnalistiki”, Moskva-2002, 166-bet”).²

Demak, matbuotning birinchi navbatdagi bajaradigan ijtimoiy yumushi, bosh vazifasi, asosiy funktsiyasi tasvir – xabardor etishlikdan iboratdir. Buni matbuotning ilk nashrlaridan to hozirgi kunimizgacha bo’lgan amaliy faoliyati to’la isbotlab turadi. Journalistikaning mazkur funktsiyasi turli davrlarda turlicha xususiyatlarga ega bo’lib, zamon va davr talabi bilan goh kengayib, goh cheklanib keldi. Faqat ozod va mustaqil davlatda faoliyat olib boradigan demokratik matbuotdagina journalistikaning boshqa funktsiyalari qatorida uning tasvir funktsiyasi ham to’la ish ko’radi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Jahon matbuoti ommaga tinchlik, taraqqiyatparvarlik kabi ilg’or g’oyalarni tarqatishi bilan bir qatorda jahon informatsiya maydonida ayrim teskaricha fikrlar, informatsion xurujlar ham paydo bo’lib qolmoqda. Bu esa journalistikaning mazkur funktsiyasining turli g’oyalarga xizmat qilishini ko’rsatib turibdi. “Journalistikaning funktsional tizimi o’ziga xosligini muayyan jamiyat doirasida mas’uliyat va ma’lum xizmatlarni taqdim etish orqali oladi. Bugungi plyuralistik jamiyatlarda ular, avvalambor, ijtimoiy jihatdan dahldor reallik modellari bilan bog’liq bo’lgan yangiliklar qiymati va haqiqatdan tashkil topgan media kommunikatsiyasi uchun mavzularni taqdim etishdan iborat. Ushbu mavzulashtirish “haqiqat” tasviri sifatida emas, balki tizimning ishslash operatsiyasiga muvofiq amalga oshiriladi.”³

Bugungi kunda O’zbekistonda ko’plab ommaviy axborot vositalari ish olib bormoqda. Mazkur ommaviy axborot vositalari o’z faoliyatlarida journalistikaning barcha funktsiyalari qatorida uning tasvir – xabardor etishlik funktsiyasidan keng foydalanib kelmoqdalar. Gazetalar har kuni, radio va televidenie esa har soatda, informatsion agentliklar har bir daqiqada va internet har bir soniyalarda kishilarga

² Қосимова Н., Тошпўлатова Н., Шофайзиева Н., Муратова Н. Босма ОАВ таҳририятлари учун ўқув қўлланма, Тошкент 2008, 6-бет

³ Weischenberg S., Kriener M. Journalistik. Band 3: Quiz und Forum (Fragen/Antwonen, Diskussion, Evaluation) – Opladen: Westdeutscher Verlag GmbH, 1998, 15-бет

hayotning turli jabhalari, dunyoning turli mamlakatlaridan turli xabarlar, yangiliklarni yetkazib bermoqdalar. Matbuotning mazkur funktsiyasini keng yo'lga qo'yish, informatsiya yig'ish va tarqatishni yanada takomillashtirish bo'yicha qator yangi qonunlar qabul qilindi. Chunki „jurnalistning vazifasi axborot olib, aholini bundan xabardor etish. Shu asosga ko'ra, jurnalistlar informatsiya olishda faqat umuman mumkin bo'lgan manbalar bilan chegaralanib qolmaydi, balki bunda alohida huquqlarga ham ega bo'lishadi. Bular asosida ular ijtimoiy vazifasini bajarish muhitida bo'ladilar“.⁴ Shunday ekan, O'zbekiston respublikasining 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida”, 2002 yilning 12 dekabrida qabul qilingan “Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida”, 2007 yilning 15 yanvarida qabul qilingan “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida” kabi qonunlar matbuotimiz va ommaviy axborot vositalari ishini yaxshi yo'lga qo'yishda, ya'ni tasvir funktsiyasini to'la amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, “avval ta'kidlanganidek, jurnalistikaning informatsion funktsiyasi umuman ommaviy axborot vositalarining demokratik vazifasi hisoblanadi. “Erkin axborot oqimi” erkin demokratik jamiyatning sifat belgisidir”.⁵

Sodir bo'lgan voqeа-hodisalar, ularning rivojidagi o'zgarishlar to'g'risidagi informatsiyalarni operativ tarzda retsipientga o'z vaqtida xolis va sof holda yetkazish, albatta, jurnalistikaning vazifasi hisoblanadi. Informatsiyalarni bir tomonlama, kimningdir manfaati yo'lida noxolislik tomon og'ishib tarqatish shu ommaviy axborot vositasining obro'siga putur yetkazishi tabiiy. Bunga voqeа-hodisani to'la o'r ganmaslik yoki ta'magirlilik zamin yaratadi. Holatni mufassal o'r ganish o'r niga distantsion ma'lumotlar yig'ish orqali ma'lum material tayyorlash bo'lib o'tgan voqeа, voqeа jarayoni borasida noto'g'ri tasavvur hosil qiladi. Ta'magirlilik yo'li bilan informatsiya tarqatish, ya'ni hokimiyatni qo'lga olganlarga yoqish uchun berilgan axborotlar auditoriya uchun shunchaki harflar, tovushlar va tasvirlar yig'indisi hisoblanadi.

Har bir OAV informatsiyalarni ommaga tezkorlik bilan yetkazishga urinadi. Lekin bugungi kun uchun dolzarb bo'lgan mavzular ma'lum bir vaqt davomida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Biron gazeta boshqa bir gazeta bergen informatsiyani abonentlariga o'z talqinida yetkazishi mumkin. Masalan, 19 dekabr kuni «Tashkent city» xalqaro ishbilarmonlik markazi hududida xalqaro hamjamiyatning korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi sa'y-harakatlarini ifodalovchi

⁴ Altendorfer O., Hilmer L. (Hrsg.), Medienmanagement - Band 1: Methodik – Journalistik und Publizistik – Medienrecht, (Kurt-Ulrich Mayer), VS Verlag für Sozialwissenschaften | GWV Fachverlage GmbH, Wiesbaden 2009, 298-бет

⁵ Lorenz D. Journalismus, 2., aktualisierte und erweiterte Auflage. – Stuttgart, Weimar: Verlag J.B. Metzler, Springer-Verlag GmbH Deutschland, 2009. – 97-бет

monumentning ochilish marosimi bo'lib o'tgani to'g'risida "Xalq so'zi" va "Ishonch" gazetalarida axborot berilgan. Bu ma'lumot "Xalq so'zi" gazetasining 2023 yil 20 dekabridagi⁶ sonida berilgan bo'lsa, "Ishonch" gazetasining 2023 yil 21 dekabrdagi⁷ sonida e'lon qilingan. Bo'lib o'tgan voqeani "Xalq so'zi" gazetasi hisobot shaklida bergen bo'lsa, "Ishonch" gazetasida xabar tarzida yetkazilgan. Garchi "Ishonch" gazetasi ikki kun kechikib xabar yetkazayotgan bo'lsa-da, muhim ahamiyatga ega bo'lgan bu voqeadan o'z mushtariylarini boxabar qilishni lozim deb bilishgan va qisqa xabarda buni ifodalab o'tishgan. Bundan kelib chiqadiki, informatsiyalarning o'z yangilagini saqlab qolishi uning ahamiyati hamda OAVning voqe-a-hodisaga qay jihatdan yondashuviga ham bog'liq.

Ma'lumki, gazetalar ijtimoiy hayotni yoritish nuqtai nazaridan turli xillarga bo'linadi. Bular umumsiyosiy, ixtisoslashgan va tarmoq gazetalari bo'lib, har bir tur o'zida jamiyat hayotining u yoki bu qatlamlarini aks ettirishi bilan ajralib turadi. Umumsiyosiy gazetalar jamiyat hayotining bosh masalalarini yoritadi hamda ko'pchilik uchun mo'ljallab chiqariladi. Umumsiyosiy gazetalar odatda davlat, hukumat, partiyalar, shuningdek, jamiyatda muhim o'rinn tutuvchi jamoat tashkilotlari tomonidan chiqariladi. Bunday gazetalar tipiga "Xalq so'zi"ni misol tariqasida keltirish mumkin.

Ixtisoslashgan gazetalar esa jamiyat hayotining katta bir sohasini yoritish uchun maxsus chiqariladi. Bunday gazetalar odatda markaziy hukumat tomonidan yoki ma'lum bir sohani boshqaruvchi idora tomonidan chiqariladi. Ixtisoslashgan gazetalar umumsiyosiy gazetalarga qaraganda o'z sohasini kengroq, chuqurroq yoritadi va asosan o'sha sohada ishlovchi kishilarga mo'ljallanadi. Gazetalarning uchinchi turi esa tarmoq nashrlari bo'lib, ular jamiyat hayotining ma'lum bir tarmog'i hayotini yoritish uchun chiqariladi va shu tarmoqda ishlovchilarga tarqatiladi. Bu xil gazetalar asosan o'sha tarmoq hayotini yoritish bilan shug'ullanadi. Shuni aytish kerakki, har uch turdag'i gazetalar matbuotning tasvir funktsiyasini to'la bajarib, jamiyatning shu kundagi, ayni zamondagi hayotini ham aks ettiradilar. Binobarin, shu tarzda jamiyatning shu kundagi, ayni zamondagi hayoti, bugunning tarixi butun to'laligi bilan o'z aksini topadi va bunda jurnalistikaning tasvir funktsiyasi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ixtisoslashgan gazetalarga "Ma'rifat", "Qishloq hayoti" kabilar misol bo'la oladi.

Ixtisoslashgan gazetalardan tashqari jamiyat hayotining turli tarmoqlarini yorituvchi gazetalar ham mavjud bo'lib, ular o'zi yoritishi lozim bo'lgan tarmoq hayoti haqidagi yangiliklar bilan auditoriyani chuqurroq tanishtirib borishga

⁶ ЎзА. Коррупцияга қарши курашиш соҳасида катор муҳим ташабbusлар илгари сурилди. "Халқ сўзи" газетаси, 2023 йил 20 декабрь

⁷ Коррупцияга қарши муросасиз курашиш зарур. "Ишонч" газетаси, 2023 йил 21 декабрь

mo’ljallangan. Bu kabi gazetalardan biri “Postda” gazetasi bo’lib, unda respublikamiz ichki ishlar vazirligi, jamoat tartibini saqlash masalalari o’z aksini topadi.

Jurnalistikaning asosiy funktsiyalarining bajarilishida gazetalar tipologik ko’rinishlari mazmun jihatidan “ierarxik” shakllanganligi barcha davriy yangiliklarni istalgan paytda topish imkonini beradi. Ya’ni misol tariqasida keltirilgan “Postda” tarmoq gazetasi faoliyati ham fikrimiz dalilidir. Tarmoq gazetalari orqali yoritilayotgan masalalar ham ixtisoslashgan gazetalar kabi asosan shu kasb egalari uchun mo’ljallanganligiga qaramay, shu tarmoq muammolari, shart-sharoitlari bilan qiziquvchilar uchun faktli ma’lumot bo’lib xizmat qiladi.

Gazetalar matbuotning tasvir funktsiyasini amalga oshirishda turli vositalardan foydalanadilar. Ana shunday o’ziga xos jurnalistik vositalardan biri rubrika – rukndir. Chunki “gazetalar qamrovi kengayib borishi materiallarni ajratish uchun rukn va sarlavhalarga ehtiyoj tug’dirgan”.⁸ Shunday ekan, axborotlarni yetkazishda ruknlar muhim rolga ega. Avvalo, rukn uning ostida beriladigan material mavzusining asosiy mazmunini o’zida mujassamlashtiradi, ya’ni ko’tarilayotgan masala yoki muammoni nimaga qaratilganligini ko’rsatib turadi. Bu bilan esa berilayotgan materiallarga, tasvir etilayotgan voqe va hodisalarga o’quvchining diqqatini tortadi. “Ruknlar so’z iqtisodiga bo’ysunadi va shu bilan birga sxemalarning ifodalanishiga ko’ra murakkabliklarni kamaytirishga xizmat qiladi”.⁹ Bu esa gazeta xodimlari bilan bir qatorda o’quvchilarga ham kerakli ma’lumotlarni topishda va saralashda yengillik beradi.

Respublikamizning markaziy umumsiyosiy nashri bo’lgan “Xalq so’zi” gazetasining tasvir funktsiyasini qanday bajarayotganligi, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy hayotining eng muhim, bosh masalalarini qanchalik qamrab olayotganligini gazeta foydalanadigan ruknlar misolida ham ko’rish mumkin. Gazeta sahifalarida turli xil ruknlarni uchratish mumkin, bular kichik va sahifa-ruknlaridan iboratdir. Gazetaning 2023 yil 22 dekabr 273-sonidagi birinchi sahifasi “Fikr”, “Seminar”, “Eksklyuziv intervyu” va “Munosabat” nomida kichik ruknlardan tarkib topgan. Ikkinci bet “Parlament”, uchinchi bet “Jarayon” va to’rtinchi bet “Ko’zgu” nomli sahifa-ruknlaridan tarkib topgan. O’z navbatida “Ko’zgu” sahifa-rukni ham “Tajriba va tashabbus”, “Bunyodkorlik” hamda “Forum” nomli kichik ruknlardan iborat.¹⁰

⁸ Dernbach B., Godulla A., Sehl A. (Hrsg.), Komplexität im Journalismus. – Wiesbaden: Springer Fachmedien GmbH, ein Teil von Springer Nature, 2019. – 68-бет

⁹ Dernbach B., Godulla A., Sehl A. (Hrsg.), Komplexität im Journalismus. – Wiesbaden: Springer Fachmedien GmbH, ein Teil von Springer Nature, 2019. – 68-бет

¹⁰ “Халқ сўзи” газетаси, 2023 йил 22 декабрь

Gazeta o'z sahifa-ruknlari nomlarini tez-tez o'zgartirib turadi. Bu esa nashrning hayotning barcha qirralarini qamrab olish, ko'proq yangiliklar berish, ya'ni jurnalistikaning tasvir funktsiyasini bajarishida qo'l keladi.

Jurnalistikaning tasvir funktsiyasi bajarilishida sarlavhalarning ham o'rni kattadir. Zotan, rukn va sarlavha konsonans effekt beradi. Sarlavhalar o'quvchilarni material mazmuniga jalb qilishda katta ahamiyatga ega. Chunki, "sarlavhalar o'qib o'tiriladigan maqolalardan ko'ra tezkorlik bilan ommaga boruvchi yo'ldir".¹¹ Sarlavhalar tarixan ham gazetalar yordamida informatsiya tarqatishda muhim rol` o'ynagan. Ya'ni, buni tarixiy voqealardan ham bilish mumkin: "... Xyorst 1898 yili siyosiy qarashlari vajidan va gazetasi tirajini oshirish maqsadida AQSH va Ispaniya o'rtasida Kuba uchun bo'ladigan urushdan manfaatdor edi. Uning asosiy gazetasi "New York Journal" yolg'on, soxta vatanparvarlik aks etgan, lekin diqqatni tortadigan sarlavhalarga zo'r bera boshladi".¹²

Sarlavhalar ba'zi hollarda esa o'quvchi uchun umumiyligi mazmunni ifodalaydi. Zotan, tasvir funktsiyasi bajarilishida foydalaniladigan xabar janrida voqeahodisalarni tasvirlash "teskari piramida" asosiga qurilgani yaqqolroq ko'rindi. Ya'ni biron yangilik berilsa, uning asosiy mazmuni sarlavha va kiritma so'zida o'z aksini topadi. "Sarlavha doimo biror bir hodisa yoki g'oyaning mohiyatini ochib berish vositasi hisoblanadi, demak, bu vosita ustida ishlash jurnalist, yozuvchi, muharrirdan alohida mas'uliyat talab qiladi".¹³ Sababi, axborot asrida retsipientlar ayrim hollarda sarlavhalar bilan cheklanish holatlarini ham kuzatish mumkin.

Avvalda aytganimizdek, jurnalistlar material mazmunini sarlavha yordamida ochib berishga yoki jalb etishga intilishadi. Masalan, "Ishonch" gazetasining 2022 yil 4 oktyabr 121-sonida "Mablag'ni tejaymiz deb, bilimni garovga qo'ymayapmizmi?"¹⁴ sarlavhali materialda maktab ta'limiga doir masala ko'tariladi, ya'ni Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 2 avgustdaggi 425-sonli qarori haqida gap boradi. Sarlavhadan o'quvchi ma'lumot ta'lim haqida ekanligini bilishi mumkin.

Sarlavhalarning imkonlari tugagan joydan fotojurnalistika materiallari orqali ilk ma'lumotlar yetkaziladi. "Fotografiyasiz ommaviy axborot vositalarini tasavvur etish qiyin, u OAVning tarkibiy qismi."¹⁵ Masalan, "Ishonch" gazetasining 2022 yil 4

¹¹ Махмудова У. Замонавий хорижий публицистик матнларда тил ва услугуб муаммолари, 5A120102-Лингвистика (инглиз тили) Магистр академик даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Каши: 2017. – 33-бет

¹² Саидов Х.А., Жамиятнинг демократлашуви жараёнида ахборот жанрларининг ривожланиш омиллари, 10.00.09 – журналистика, филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, Тошкент: 2021. – 48-бет

¹³ Косимова Н. Экологик журналистика Ўзбекистон сиёсатида: ривожланиш тенденциялари ва ўзаро хамкорликни амалга ошириш усуслари. Филологи фанлари доктори (Doctor of Science) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Тошкент 2021. 229 б. 156-б.

¹⁴ Тўрабоева М. Маблагни тежаймиз деб, билимни гаровга кўймаяпмизми? "Ишонч" газетаси, 2022 йил 4 октабрь

¹⁵ Каримов А. Аудиовизуал журналистика (тележурналистика) фанидан ўқув-услубий мажмуя. Тошкент, 2019

oktyabr 121-sonida “15 sotixdan 30 million so’m daromad”¹⁶ nomli materialda sarlavha orqali materialning umumiy mazmuni va berilgan fotolar yordamida esa yetkazilayotgan informatsiya yanada yorqinroq ifodalangan. Ya’ni 15 sotixdan 30 million daromadni malina orqali olinayotganligi anglashiladi.

Jurnalistikaning tasvir funksiyasi gazetalar bilan bir qatorda matbuotning asosiy turlaridan biri bo’lgan jurnallarda ham o’z aksini topadi. Jurnallar gazetalardan farqli o’laroq asosan jamiyat hayotining chuqur qatlamlarini, berayotgan voqealarni hodisalarning ichki mohiyatini yoritishga mo’ljallansa-da, baribir, bu – hayotni tasvirlashdan kelib chiqadi. Lekin jurnallar faoliyatining asosiy qismi tahlil funksiyasi bilan bog’liq. Bundan tashqari informatsiya yetkazishda krossmedial usuldan ham foydalanib turiladi. Masalan, “Xalq so’zi” gazetasining 2023 yil 19 noyabrdagi sonida “Yangi sport va transport infratuzilmasi ob’ektlari azim poytaxtga ko’rk bag’ishlaydi”¹⁷ sarlavhasidagi material O’zA sahifasida¹⁸ ham aynan shu nomda berilgan. “Ishonch” gazetasida bu usuldan asosan “Kun nafasi” ruknida beriladigan materiallarda foydalaniladi. Umuman olganda, bu tarzda informatsiyalarni berishinteraktivlikni oshirib, OAV materiallarini mazmun jihatidan ham boyitadi.

XULOSA

Yuqoridagi kuzatuvlardan ko’rinib turibdiki, respublikamizda chiqadigan matbuot nashrlari ijtimoiy hayotni yoritishda, jurnalistikaning tasvir funksiyasini ado etishda hayotga turlicha – rasmiy, partiyaviy, umumsiyosiy, ixtisoslashuv, tarmoq va dam oldiruv kabi nuqtai nazarlardan yondashadilar va shu tarzda ularda jamiyat hayoti bir butun holatda aks etadi. Jurnallar esa gazetalarni to’ldirib kelib, tasvir funksiyasini yanada kengroq, chuqurroq bo’lishiga hamda uning tahlil funksiyasi bilan hamkorlikda ish ko’rishiga xizmat qiladi. Matbuotning tasvir funksiyasi jamiyat hayotining barcha tomonlarini to’la-to’kis aks ettirishni taqozo etadi. Bu vazifa qanchalik to’la bajarilsa, matbuotning jamiyat hayotiga ta’siri shunchalik muhim bo’ladi, insoniyat dunyo voqealaridan to’la xabardor bo’ladi, ongi oshadi, ijtimoiy hamda siyosiy faoliyati yanada keng ko’lamda bo’ladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI (REFERENCES)

1. Altendorfer O., Hilmer L. (Hrsg.), Medienmanagement - Band 1: Methodik – Journalistik und Publizistik – Medienrecht, (Kurt-Ulrich Mayer), VS Verlag für Sozialwissenschaften | GWV Fachverlage GmbH, Wiesbaden 2009

¹⁶ Эргашев Ж. 15 сотихдан 30 миллион сўм даромад. “Ишонч” газетаси, 2022 йил 4 октябрь

¹⁷ ЎзА. Янги спорт ва транспорт инфратузилмаси объектлари азим пойтахтга кўрк бағишлади // “Халқ сўзи” газетаси, 2023 йил 19 ноябрь

¹⁸ https://aza.uz/uz/posts/yangi-sport-va-transport-infratuzilmasi-obektlari-azim-poytaxtga-kork-bagishlaydi_539957

2. Dernbach B., Godulla A., Sehl A. (Hrsg.), Komplexität im Journalismus. – Wiesbaden: Springer Fachmedien GmbH, ein Teil von Springer Nature, 2019
3. Lorenz D. Journalismus, 2., aktualisierte und erweiterte Auflage. – Stuttgart, Weimar: Verlag J.B. Metzler, Springer-Verlag GmbH Deutschland, 2009
4. Weischenberg S., Kriener M. Journalistik. Band 3: Quiz und Forum (Fragen/Antworten, Diskussion, Evaluation) – Opladen: Westdeutscher Verlag GmbH, 1998
5. Дўстқораев Б. “Ўзбекистон журналистикаси тарихи. (1-қисм. 1870-1917 йил ноябрь)” Дарслик. Faafur Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент, 2009
6. Каримов А. Аудиовизуал журналистика (тележурналистика) фанидан ўкув-услубий мажмуа. Тошкент, 2019
7. Қосимова Н. Экологик журналистика Ўзбекистон сиёсатида: ривожланиш тенденциялари ва ўзаро ҳамкорликни амалга ошириш усувлари. Филология фанлари доктори (Doctor of Science) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Тошкент 2021
8. Қосимова Н., Тошпўлатова Н., Шофайзиева Н., Муратова Н. Босма ОАВ таҳририятлари учун ўкув кўлланма, Тошкент 2008
9. Маҳмудова У. Замонавий хорижий публицистик матнларда тил ва услуб муаммолари, 5A120102-Лингвистика (инглиз тили) Магистр академик даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Қарши: 2017
10. Сайдов Ҳ.А., Жамиятнинг демократлашуви жараёнида ахборот жанрларининг ривожланиш омиллари, 10.00.09 – журналистика, филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, Тошкент: 2021